

Date: 3rd August-2026

MA'NAVIY VA IQTISODIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA MEHNAT
FENOMENINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

Abdumurodov Abduhamid Abdusaid o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada mehnat fenomenining jamiyat ma'naviy va iqtisodiy munosabatlari tizimidagi o'rni, mazmun-mohiyati va ijtimoiy-falsafiy ahamiyati kompleks tarzda tahlil etilgan. Mehnat insonning tabiat va jamiyat bilan o'zaro munosabatini belgilovchi, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarida faol ishtirok etishini ta'minlovchi fundamental faoliyat shakli sifatida tadqiq etilgan. Maqolada mehnatning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi funksiyasi bilan bir qatorda, uning insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ijtimoiy mas'uliyati, mehnat madaniyati va qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, mehnat va ma'naviyat o'rtasidagi dialektik aloqadorlik, iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitalining rivojlanishida mehnatning o'rni, mehnat munosabatlarning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaviy globallashuv, raqamlashtirish va innovatsion rivojlanish sharoitida mehnat mazmunining transformatsiyasi, intellektual va ijodiy mehnatning tobora ustuvor ahamiyat kasb etishi hamda inson omilining iqtisodiy taraqqiyotdagi roli ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: mehnat fenomeni, ma'naviyat, iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy-falsafiy tahlil, mehnat madaniyati, inson kapitali, ijtimoiy taraqqiyot, ma'naviy qadriyatlar, iqtisodiy rivojlanish, intellektual mehnat, mehnat munosabatlari, inson omili.

Аннотация:статье комплексно анализируются место, содержание и социально-философское значение феномена труда в системе духовных и экономических отношений общества. Труд рассматривается как фундаментальная форма человеческой деятельности, определяющая взаимодействие человека с природой и обществом, обеспечивающая удовлетворение его материальных и духовных потребностей, реализацию личностного потенциала и активное участие в процессах общественного развития. В исследовании наряду с экономическими функциями труда раскрывается его влияние на формирование духовно-нравственного облика личности, социальной ответственности, культуры труда и системы общественных ценностей. Особое внимание уделяется диалектической взаимосвязи труда и духовности, роли труда в развитии человеческого капитала и экономическом прогрессе, а также значению трудовых отношений в обеспечении социальной стабильности. С научно-теоретической точки зрения обоснована трансформация содержания труда в условиях современной глобализации, цифровизации и инновационного развития, повышение роли интеллектуального и творческого труда, а также значения человеческого фактора в экономическом развитии.



Date: 3rd August-2026

Ключевые слова: феномен труда, духовность, экономические отношения, социально-философский анализ, культура труда, человеческий капитал, общественное развитие, духовные ценности, экономическое развитие, интеллектуальный труд, трудовые отношения, человеческий фактор.

Abstract: this article provides a comprehensive analysis of the role, essence, and socio-philosophical significance of the phenomenon of labor within the system of spiritual and economic relations in society. Labor is examined as a fundamental form of human activity that determines the interaction between individuals, nature, and society, contributes to the satisfaction of material and spiritual needs, enables the realization of personal potential, and ensures active participation in the processes of social development. Along with the economic functions of labor, the study highlights its influence on the formation of an individual's spiritual and moral character, social responsibility, labor culture, and system of social values. Particular attention is paid to the dialectical relationship between labor and spirituality, the role of labor in human capital development and economic progress, as well as the importance of labor relations in ensuring social stability. From a scientific and theoretical perspective, the study substantiates the transformation of the content of labor under the conditions of modern globalization, digitalization, and innovative development, the increasing significance of intellectual and creative labor, and the growing role of the human factor in economic development.

Keywords: phenomenon of labor, spirituality, economic relations, socio-philosophical analysis, labor culture, human capital, social development, spiritual values, economic development, intellectual labor, labor relations, human factor.

Jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy va ma'naviy asoslari o'zaro dialektik aloqadorlikda rivojlanadi. Iqtisodiyot jamiyatning moddiy hayotini ta'minlovchi asosiy tizim sifatida insonning ma'naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moddiy shart-sharoitlarni yaratadi. O'z navbatida, ma'naviyat, ilm-fan, ta'lim, madaniyat, axloqiy qadriyatlar va inson kapitalining rivojlanishi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda iqtisodiyot va ma'naviyat o'rtasidagi munosabatni bir tomonlama emas, balki o'zaro ta'sir va bir-birini to'ldirish tamoyili asosida baholash maqsadga muvofiqdir. Mazkur jarayonlarning markazida esa inson va uning mehnat faoliyati turadi. Iqtisodiyotning rivojlanishi, avvalo, insonning mehnat faoliyati, ishlab chiqarish jarayonlaridagi ishtiroki va mavjud iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Mehnat iqtisodiy tizimning asosiy tarkibiy elementi sifatida moddiy ne'matlar va xizmatlar yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, milliy daromadni shakllantirish hamda jamiyat a'zolarining farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq zamonaviy iqtisodiyot sharoitida mehnatning mazmuni faqat jismoniy faoliyat bilan cheklanib qolmay, tobora ko'proq bilim, malaka, innovatsion fikrlash, ijodkorlik va intellektual salohiyat bilan belgilanmoqda. Iqtisodiy rivojlanish jarayonida yangi texnologiyalarning joriy etilishi, ishlab chiqarish vositalarining takomillashuvi va mehnat unumdorligining oshishi insondan yangi bilim va ko'nikmalarni egallashni talab etadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining

Date: 3rd August-2026



murakkablashuvi, raqamli texnologiyalar va innovatsion iqtisodiyotning kengayishi natijasida mehnat bozorida yuqori malakali, kreativ va texnologik jihatdan savodli mutaxassislariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish, uzluksiz ta'lim tamoyilini rivojlantirish hamda inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, inson kapitali zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim strategik resurslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Inson kapitalining rivojlanishi esa bevosita ta'lim, tarbiya, ilm-fan, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy rivojlanish darajasiga bog'liq. Bilimli, malakali va yuqori ma'naviy salohiyatga ega bo'lgan inson nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki yangi g'oyalar, innovatsion texnologiyalar va tadbirkorlik tashabbuslarini yaratishga qodir bo'ladi. Demak, ma'naviy rivojlanish va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik inson kapitali orqali namoyon bo'ladigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir. Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun moddiy shart-sharoitlarning mavjudligi ma'naviy sohalarining taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, iqtisodiy o'sish natijasida ta'lim, ilm-fan, madaniyat, san'at, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun zarur moliyaviy va institutsional imkoniyatlar kengayadi. Jamiyatning iqtisodiy salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, insonning bilim olishi, kasbiy rivojlanishi va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun shunchalik keng imkoniyatlar yaratiladi. Shu bilan birga, ma'naviy va intellektual salohiyatning yuksalishi iqtisodiyot uchun yangi g'oyalar, innovatsiyalar va texnologik yechimlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Bundan ko'rinadiki, iqtisodiyot va ma'naviyat o'rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama xarakterga ega. Iqtisodiyot ma'naviy rivojlanish uchun zarur moddiy bazani yaratgan bo'lsa, ma'naviyat iqtisodiy faoliyatning mazmuni, yo'nalishi va ijtimoiy mas'uliyatini belgilaydi. Ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarda halollik, adolat, mas'uliyat, ishonch, hamkorlik va insonparvarlik kabi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning qaror topishi iqtisodiy tizimning barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim shartdir. Iqtisodiyotning tor xususiy maqsadi foyda olishdan iborat bo'lishi mumkin, biroq uning keng ijtimoiy vazifasi insonning moddiy farovonligini ta'minlash, munosib turmush sharoitlarini yaratish va shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishdan iborat. Shu jihatdan ma'naviyat iqtisodiyotning inson manfaatlariga xizmat qilishi zarurligini belgilovchi muhim mezon sifatida namoyon bo'ladi. Agar iqtisodiy rivojlanish faqat foyda va moddiy manfaatlar bilan chegaralanib qolsa, ijtimoiy tengsizlik, begonalashuv, mehnatga befarqlik va ijtimoiy ziddiyatlar kuchayishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiy taraqqiyotning faqat moddiy ko'rsatkichlar bilan baholanishi jamiyat rivojining insonparvarlik mazmunini susaytirishi ehtimoli mavjud. Shu sababli zamonaviy iqtisodiy siyosatda iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda, inson farovonligi, munosib mehnat sharoitlari, ijtimoiy himoya, ta'lim va sog'liqni saqlash imkoniyatlari, shaxsning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Bunda iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Date: 3rd August-2026



Mehnat fenomenining iqtisodiy mazmuni, ayniqsa, mehnat bozorining rivojlanishi jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozori ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif asosida shakllanib, iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlariga mos ravishda rivojlanadi. Biroq mehnat bozoridagi iqtisodiy o'zgarishlarga aholining psixologik va ma'naviy moslashuvi nisbatan sekin kechishi mumkin. Masalan, yangi kasblarning paydo bo'lishi, ayrim an'anaviy kasblarga bo'lgan talabning kamayishi yoki raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan yangi mehnat shakllariga moslashish uchun insondan nafaqat kasbiy bilim, balki yangilikka ochiqlik, moslashuvchanlik va doimiy o'z ustida ishlash madaniyati ham talab etiladi. Shu bois iqtisodiy taraqqiyotning barqaror sur'atlarini ta'minlashda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish va yoshlarni zamonaviy mehnat bozori talablariga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning kasb tanlash jarayonida iqtisodiyotning real ehtiyojlarini hisobga olish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklarni aniqlash va ularga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bunda ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy hamkorlik inson kapitalidan samarali foydalanishning muhim sharti hisoblanadi. Mehnatga bo'lgan munosabatning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Inson o'z mehnatining natijasini jamiyat va shaxsiy taraqqiyot uchun muhim deb his qilgan taqdirdagina mehnat jarayoniga ijodiy va mas'uliyatli yondashadi. Mehnatning munosib baholanishi, adolatli ish haqi, xavfsiz va qulay mehnat sharoitlari, kasbiy o'sish imkoniyatlari hamda xodimning huquq va manfaatlarini himoya qilish mehnat unumdorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, mehnat natijalarining adolatsiz baholanishi, ish beruvchi va xodim o'rtasidagi ishonchsizlik hamda ijtimoiy sheriklik tamoyillarining buzilishi mehnat samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, mehnat munosabatlarida ma'naviy-axloqiy tamoyillarning mavjudligi iqtisodiy samaradorlikning muhim omillaridan biridir. Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi ishonch, o'zaro hurmat, ijtimoiy sheriklik va mas'uliyat iqtisodiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydi. Bunday munosabatlar mavjud bo'lgan korxona va tashkilotlarda mehnat jamoasining ijtimoiy-psixologik muhiti yaxshilanib, xodimlarning mehnat unumdorligi, tashabbuskorligi va innovatsion faolligi ortadi. Mehnat va iqtisodiyot munosabatlarining yana bir muhim jihati tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq. Tadbirkorlik nafaqat daromad olish, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish, raqobat muhitini rivojlantirish va jamiyat iqtisodiy faolligini oshirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Tadbirkorlik madaniyatining shakllanishida esa insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, xususan, tashabbuskorlik, mas'uliyat, halollik, tavakkalchilikka tayyorlik, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat muhim rol o'ynaydi. Tadbirkorlik faoliyatining ma'naviy mazmuni uning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatida namoyon bo'ladi. Foyda olish iqtisodiy faoliyatning muhim motivlaridan biri bo'lsa-da, tadbirkorlikning ijtimoiy samarasi yangi ish o'rinlari yaratish, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va jamiyat farovonligiga hissa qo'shish orqali belgilanadi. Shu sababli tadbirkorlik va mehnat munosabatlarida iqtisodiy manfaatlar bilan ma'naviy-axloqiy

Date: 3rd August-2026



mas'uliyatning uyg'unligi barqaror iqtisodiy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Iqtisodiyot va ma'naviyat o'rtasidagi munosabatlarda muayyan ziddiyatlar ham mavjud. Bir tomondan, iqtisodiy manfaat va foyda olishga intilish ishlab chiqarish samaradorligi, raqobat va innovatsiyalarni rag'batlantirishi mumkin. Boshqa tomondan, iqtisodiy manfaatlarning haddan tashqari ustuvorligi insonning ma'naviy ehtiyojlari va ijtimoiy manfaatlarining ikkinchi darajaga tushib qolishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, texnokratik yondashuvlar ustun bo'lgan sharoitda inson faqat ishlab chiqarish resursi sifatida qaralishi xavfi mavjud. Bunday holatda iqtisodiy o'sish kuzatilgan taqdirda ham, ijtimoiy begonalashuv, mehnatdan qoniqmaslik va insoniy munosabatlarning zaiflashuvi yuzaga kelishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanishning yetarli darajada ta'minlanmasligi ham ma'naviy sohalar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi ta'lim, ilm-fan, madaniyat va san'atning moddiy bazasini rivojlantirishga to'sqinlik qilishi, aholining intellektual va ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini kamaytirishi mumkin. Natijada jamiyatda innovatsion fikrlash, ilmiy izlanish va yangi texnologiyalarni yaratishga bo'lgan ehtiyoj yetarli darajada qondirilmaydi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tishni qiyinlashtiradi. Demak, iqtisodiyot va ma'naviyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni jamiyat taraqqiyotining ikki mustaqil, ammo o'zaro bog'liq yo'nalishi sifatida ko'rish lozim. Iqtisodiy taraqqiyot ma'naviy rivojlanish uchun zarur moddiy imkoniyatlarni yaratadi, ma'naviy va intellektual taraqqiyot esa iqtisodiy o'sishning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Mazkur o'zaro ta'sirning markazida esa mehnat fenomeni turadi. Chunki insonning mehnat faoliyati orqali iqtisodiy qiymat yaratiladi, inson kapitali rivojlanadi, innovatsiyalar vujudga keladi va jamiyatning ma'naviy salohiyati namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, zamonaviy taraqqiyot modelida insonni asosiy ishlab chiqaruvchi kuch va iqtisodiy jarayonlarning faol subyekti sifatida e'tirof etish muhimdir. Insonning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish, mehnatga bo'lgan munosabatini takomillashtirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va kasbiy kompetensiyalarini oshirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Bunda mehnatga yangicha munosabatni shakllantirish faqat moddiy rag'batlantirish bilan cheklanmasdan, insonning o'z mehnati orqali o'zligini namoyon etishi, jamiyat uchun foydali faoliyat olib borishi va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lishini ta'minlashni ham nazarda tutadi.

Xulosa qilsak, mehnat fenomenining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini iqtisodiy munosabatlar tizimidan ajratib bo'lmaydi. Mehnat iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ishlab chiqarish, daromad, bandlik, tadbirkorlik va inson kapitalining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, mehnatning ma'naviy mazmuni insonning mas'uliyati, mehnat madaniyati, kasbiy axloqi, ijtimoiy faolligi va ijodiy salohiyatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligi va jamiyatning ma'naviy yuksalishi mehnatning iqtisodiy samaradorligi bilan uning insonparvarlik va ma'naviy mazmuni o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga bog'liq, jamiyat taraqqiyotining istiqboli iqtisodiyot va ma'naviyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik sifatini

Date: 3rd August-2026

oshirish, mehnat bozorini takomillashtirish hamda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, yoshlarning mehnatga ijobiy munosabatini shakllantirish, ularni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish va innovatsion iqtisodiyot talablariga mos tayyorlash orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish mumkin. Bunday yondashuvda mehnat nafaqat iqtisodiy qiymat yaratish vositasi, balki insonning ma’naviy kamoloti, ijtimoiy faolligi va jamiyat taraqqiyotining fundamental omili sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son Farmoni. “Tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarda ma’muriy yuklamalarni yanada qisqartirish va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

